



UMUMIY O'RTA TA'LIM O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI OMMALASHTIRISH

Jumanazarov S.S.

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
kafedra mudiri, t.f.n., dotsent*

Tayanch soʻzlar: uzluksiz kasbiy rivojlantirish, tarbiya, model, masofaviy ta'lim, globallashuv.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, воспитание, модель, дистанционное обучение, глобализация.

Key words: continuous professional development, education, model, distance learning, globalization.

Резюме:

Ushbu maqolada xorijiy rivojlangan davlatlarda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tajribalari tahlil etilgan hamda ularning tajribalarini ommalashtirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

Резюме:

В данной статье анализируется опыт непрерывного профессионального развития учителей в зарубежных развитых странах и предлагаются предложения и рекомендации по популяризации их опыта.

Summary:

This article analyzes the experience of continuous professional development of teachers in foreign developed countries and offers suggestions and recommendations for popularizing their experience.

Umumiy o'рта ta'lim maktabi o'qituvchilarining malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirishga oid xorijiy rivojlangan mamlakatlarda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, quyida umumiy o'рта ta'lim maktablari o'qituvchilarining malaka oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning qiyosiy tahlili, afzallik va kamchiliklari keltirilgan.

Xususan, Qo'shma Shtatlarda hozirgi vaqtda o'qituvchilarning malakasini oshirishning uch xil modeli qo'llaniladi: kaskad, standart va birlashtirilgan. Birinchisi, ya'ni kaskad modelda bir vaqtning o'zida bir necha bosqichda rivojlanishni o'z ichiga oladi. Bunday holda, mutaxassis ma'lum bir bilim

darajasini o'zlashtiradi va keyin uni boshqalarga taqdim etadi. Ushbu modelga asoslangan dasturlar o'qituvchilarning malakasini oshirish va rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi. Ikkinchi, standart model bo'lib, bunda ma'lum bir bilim sohasida tajribani kengaytirish uchun mahorat darslari, konferentsiyalar, seminarlar va kurslar o'tkazishga asoslangan (Mazkur yondashuv mamlakatimizda eng ko'p qo'llaniladi). Uchinchi, birlashtirilgan variant yuqorida keltirilgan turli modellarning elementlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mustaqil tadqiqot faoliyatini amalga oshirishni nazarda tutadi [1].

Germaniyaning bu boradagi tajribasini tahlil qilib, shuni aytishimiz mumkinki, u ancha moslashuvchan, ammo majburiydir (Ushbu tizim mamlakatimizda ham qo'llaniladi). Germaniyada o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ko'pincha akademiyalarda yoki malaka oshirish markazlarida tashkil etiladi. Shu bilan birga, malaka oshirish o'qituvchilar tomonidan qulay rejimda amalga oshiriladi. Ular buni ish vaqtdan tashqarida ham, jarayon davomida ham amalga oshirish imkoniga ega. Shu nuqtai nazardan, mutaxassislar ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlarning moslashuvchanligi ko'rib chiqiladi. Bu mamlakatda dasturga mahorat darslari, treninglar, o'quv kurslari, seminar va konferensiyalar hamda uzluksiz o'qitishning zamonaviy modellarini kiritishni nazarda tutuvchi ikkala klassik yondashuv qo'llaniladi. Ikkinchisi ma'lum bir o'quv vazifasini amalga oshirishga qaratilgan o'qituvchilarning jamoaviy ishini anglatadi. Endi ushbu modellarning aksariyati o'qituvchilar o'rtasida turli g'oyalarga qarshi kurashning kompleks yondashuvini o'z ichiga oladi [1]. Shu bilan birga, ijtimoiy rivojlanishga asoslangan masofaviy ta'lim kurslari hozirda ahamiyatli hisoblanadi. Shvetsiyada o'qituvchilarning malakasini oshirish ixtiyoriydir (Mamlakatimizda majburiy hisoblanadi). Bundan tashqari, o'qituvchilar malakasini oshirishning an'anaviy modeli o'zini-o'zi boshqarish modelidir. Bu o'qituvchining ilmiy ishlanmalari bilan bog'liq bo'lib, unga oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari yordam beradi (Mamlakatimizda malaka oshirishning mahorat markazlari professor-o'qituvchilari yordam beradi). Tadqiqot tugagach, o'qituvchilar va ularning ilmiy maslahatchilari o'z ilmiy izlanishlari natijalarini taqdim etadilar hamda ularni hamkasblari bilan muhokama qiladilar. O'zini-o'zi boshqarish modeli o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga va uning kasbiy o'sishiga qaratilgan. Ushbu yondashuvning shiori "O'rganishni o'rganing" deb bejiz aytilmagan. Bu o'qituvchilarning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shunday qilib, o'qituvchilar mustaqil ravishda o'quv maqsadlarini aniqlaydilar, kerakli ma'lumot



manbalarini va o'qitish usullarini tanlaydilar. O'qituvchilar o'z malakalarini oshirishga rag'batlantiriladi, ular kamroq tajribali hamkasblariga maslahat berib, murabbiy sifatida ishlaydi [2,3].

Agar Germaniya va Shvetsiyani solishtiradigan bo'lsak, ikkinchi mamlakat malaka oshirish bo'yicha ko'proq ixtiyoriydir. An'anaga ko'ra, bu yerda o'z-o'zini boshqarish modeli qo'llaniladi, bu o'qituvchiga mas'uliyatni o'z qo'lga olish va shu bilan birga o'zini erkin his qilish imkonini beradi. Shunday qilib, mutaxassislar mustaqil ravishda o'qitish modelini tanlaydilar, maqsad va vazifalarni shakllantiradilar va natijalarni baholaydilar. Bunday holda, ta'lim xodimlari natijalarga e'tibor qaratishadi.

Buyuk Britaniyada o'qituvchilarning malaka oshirishi muntazam ravishda o'zgarib turadigan zamonaviy dunyoga doimiy moslashishiga e'tibor qaratadi. Chunki ushbu davlatlarning olimlari bir necha yil oldin dolzarb bo'lgan klassik o'qitish modellari har doim ham samarali bo'lib qolmasligini ilmiy jihatdan asoslagan. Birinchidan, ta'lim sohasidagi ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan ko'pgina ta'lim dasturlari jamiyatning doimiy o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishga asoslanadi. Ikkinchidan, o'qituvchining rivojlanishi har doim uzoq muddatli nuqtai nazardan qaraladi. Rivojlanish dasturlari ko'pincha muhim davrga mo'ljallangan va nafaqat kasbiy o'sishga, balki psixologik takomillashtirish hamda shaxsiyatni o'zgartirishga qaratilgan bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi [2].

Yevropaning aksariyat qismida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish pedagogika institutlari va turli universitetlarda amalga oshiriladi. Masalan, Finlandiyadagi eng muhim malaka oshirish institutlari universitetlar, institutlar va akademiyalardir hamda o'quv markazlarida olib boriladi (Mamlakatimizda pedagogik mahorat markazlarida amalga oshiriladi). Deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida o'qituvchilarning malakasini oshirish tegishli markazlar va o'qituvchilarning kasbiy uyushmalari (birlashmalar, jamiyatlar, assotsiatsiyalar va boshqalar) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda turli xil pedagogik yordam markazlari, korporatsiyalar, firmalar, xalqaro tashkilotlar ishtirok etishadi, xususi muassasalar faoliyat olib boradi [3].

Maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha Xitoyga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakat tajribasi an'ana va innovatsiyalar bilan jamlangan, deyishimiz mumkin. Bu yerda kasbiy rivojlanishning individual va jamoaviy modellari qo'llaniladi. Ushbu mamlakatda guruhli o'qitish keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Bunda o'qituvchilar maqsad va tarbiyaviy manfaatlardan kelib chiqqan holda maxsus jamoalarga birlashtiriladi. Bu kabi

guruhlar tajribani kuzatish va yangi pedagogik yondashuvlarni o'rgatish uchun faoliyat olib boradi [4].

Shuningdek, ushbu davlatda maktab o'qituvchilarining malakasini oshirishda va uzluksiz kasbiy rivojlantirishda kollektiv, klassik modellar ham qo'llaniladi. Xitoyda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, treninglar, seminarlar, konferentsiyalar, mahorat darslari va boshqa shunga o'xshash malaka oshirish usullari keng tarqalgan. Biroq, so'nggi bir necha yil ichida rivojlanishning individual usullarini joriy qilish tendentsiyasi kuzatildi. Shunday qilib, o'qituvchilar o'z bilimlarini oshirmoqchi bo'lgan sohani va maqsadiga erishmoqchi bo'lgan yondashuvni tanlashlari mumkin. Bu tendentsiya bir muncha istiqbolli hisoblanadi, chunki u mustaqil ishlashga imkon beradi, bunda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, ijodiy yondashuvdan foydalanadi, muayyan mavzuni o'z idrok qilish chegaralarini kengaytiradi. Ayniqsa, Xitoyning ta'lim sohasida malaka oshirish nazariy qismlardan ko'ra ko'proq amaliyotga asoslanadi. Bu yerda fikrlash va tajriba birlashtirilib, ular birgalikda to'liq rivojlanishga imkon beradi. Shu munosabat bilan mikro-ta'lim keng tarqaldi, unda soddalashtirilgan o'qitish sxemalari qo'llaniladi. Ushbu yondashuvni qo'llashda trening fragmenti videoga yozib olinadi, keyin uni qayta ko'rish va tahlil qilish mumkin.

Yaponiyada malaka oshirishning asosiy shakllari o'qituvchining kasbiy rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega fazilatlar va xususiyatlarni rivojlantirish kontekstida o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish hamda o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, Yaponiya oliy ta'lim muassasalariga stajirovkalar o'tkazish mexanizmi yo'lga qo'yilgan (Mamlakatimizda ushbu tizim yo'lga qo'yilmagan) [5].

Janubiy Koreyada nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish hamda yangi o'qituvchilarning amaliy kasbiy mahorati yetishmasligini bartaraf etish choralarini ko'rish, jumladan, o'qituvchilari uchun intensiv va sifatli o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, sinov muddatini joriy etish, o'qituvchilar malakasini oshirish institutini malakali kadrlar darajasida takomillashtirish kabi choralar ko'rilb kelinadi [6]. "O'qituvchilar ustavi" va "O'qituvchilar dasturi" qoidalari Kim Chongcholning ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va Kim rahbarligidagi mualliflar jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchi kontsepsiyasi kabi o'ziga xos pedagogik konsepsiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Kim Chongchol Koreya Respublikasida zamonaviy ta'limni rivojlantirishning besh jihatini belgilab berdi: 1) ta'lim sohasida kasbiy darajani oshirish; 2) har tomonlama ta'lim; 3) uzluksiz ta'lim; 4) ta'lim sohasidagi innovatsiyalar; 5) globallashtirish [7].



Janubiy Koreyada fan o'qituvchilarini tanlash va ish bilan ta'minlashda o'qituvchilarning tayyorgarligi, malakasi va joylashuvi o'rtasidagi bog'liqlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchilarning malakasini oshganlik darajasi turli baholash mezonlardan foydalaniladi. O'qituvchining kasbiy mahorati bir martalik takomillashtirish emas, uzluksiz o'sishni talab qiladi, shuning uchun unga uzluksiz ta'lim nuqtai nazaridan yondashadi. O'qituvchining kasbiy mahoratiga ularning barchasi o'qituvchilar tayyorlash dasturining oxirida erishmaydi, balki maktabda amaliyot va mashg'ulotlar orqali erishiladi. Xususan, mazmunli pedagogika yoki mazmunga xos pedagogika bo'yicha bilimlar o'qituvchining butun faoliyati davomida rivojlanishi kerak bo'lgan soha hisoblanadi [6].

Rossiyada maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha ishning individual maqsadlari, shakllari, usullari va mazmuni shakllantiriladi. Turli o'quv yillarida tinglovchilarni guruhleri va vaqtinchalik ijodiy jamoalarning shakllanishi ham aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam ko'rsatishning jamoaviy, guruhli va individual shakllarini aniqlashga yordam beradi. Agar o'qituvchi uslubiy birlashma yig'ilishlarida hamkasblarini innovatsion g'oyalar, yondashuvlar, ilg'or tajribalar to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilsa, shuningdek, dars davomida olingan bilimlarga tayangan holda o'quvchilar bilan ishlashning samarali usullarini ko'rsatadigan ochiq darslar o'tkazsa, kurs o'qitish natijalarining oshishi kuzatiladi. Shunday qilib, umumiy va o'ziga xos qiyinchiliklarni aniqlash, ularning munosabatlarini va hal qilish usullarini o'rnatish ayniqsa samaralidir. Butun jamoa bilan ishlashga katta e'tibor beriladi. Ta'lim muassasasida o'tkaziladigan yig'ilishlar, konferensiyalar va hokazolarda rahbar barchaga e'tibor qaratadi. Shuni hisobga olish kerakki, o'qituvchi faqat o'zi kerak bo'lgan ma'lumotni talab qiladi. Shu sababli, o'qituvchining malakasini oshirish bo'yicha faoliyatida maktab xodimlarida ijobiy motivatsiyani shakllantirishga, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini-o'zi anglash zarurligiga katta e'tibor beriladi [7, 8, 9].

Shunday qilib, sohaga oid olib borilgan ilmiy-metodik manbalar va xorijiy tajribalar asosida mamlakatimiz pedagoglarini jumladan, "Tarbiya" fani o'qituvchilarining samarali malaka oshirish tizimini shakllantirish bo'yicha quyidagi xulosa va tavsiyalarni berish mumkin:

1. Malaka oshirishni toifalashtirish lozim (yosh mutaxassislar, maktabda o'qitish tajribasiga ega bo'lgan, malakali va pedagogik salohiyatli o'qituvchilar);
2. Malaka oshirish shakli: a) ishdan ajralgan holda; b) ishdan ajralmagan holda (sirtqi, kechki va masofaviy) tarzda tashkil qilish maqsadga muvofiq.

3. Malaka oshirish dasturlari: o'qituvchilar ehtiyojdan kelib chiqib tuziladigan dinamik (o'zgaruvchan) dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi; o'qituvchilar o'z ehtiyojidan kelib chiqib tanlaydigan modulli-kredit dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Yuqoridan kelib chiqib hududiy pedagogik markazlarida "Tarbiya" fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshiurish uchun quyidag innovatsion yondashuvlarni tavsiya etamiz: o'qitishning ilg'or va samarali metodlarini qo'llashga yo'naltilgan oliy ta'lim, malaka oshirish va o'rta umumiy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik; malakali o'qituvchi-moderator tomonidan o'qituvchilarining haftadagi ijodiy kunlarida tashkil qilinadigan maxsus malaka oshirish kurslari va seminar-treninglar tashkil etish; tarbiyaga oid yagona malaka oshirish portalini ishga tushirish. Unda malaka oshirishning va o'qitishning eng samarali innovatsion texnologiyalari va o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalari haqidagi ma'lumotlarni qo'yish va ommalashtirish. Har bir o'qituvchining portfoliolari joylashtirishlari uchun shaxsiy kabinetlar ochish, ularga tegishli login va parollarni berish. O'qituvchilar haqida to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish; malaka oshirish dasturlarida o'qituvchilar o'z ehtiyojidan kelib chiqib tanlaydigan modullar soni va ularga ajratilgan soatlar miqdorini oshirib borish; malaka oshirish dasturlarini jamoada ishlash va turli interfaol metodlar asosida tashkil qilingan amaliy faoliyat mashg'ulotlari, seminar-treninglar va albatta o'quv amaliyoti hamda ko'chma mashg'ulotlardan iborat qilib tuzish. Malaka oshirish davomida bitiruv malaka ishi bo'yicha individual ravishda ish olib borish va uni himoya qilish; malaka oshirish mashg'ulotlarini: faol ma'ruza, hikoya yoki munozara shaklidagi seminar, darslarni kuzatish, dars o'tish, darsni tahlil qilish va baholash hamda boshqa amaliy faoliyatlarga oid amaliy mashg'ulot, tajriba almashish, o'quv ekskursiyalari va ko'chma mashg'ulotlar hamda yakuniy nazoratga tayyorlanish darslaridan iborat qilib o'tish; malaka oshirish mazmuniga zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqib, odatdagi malaka oshirish kursi dasturlari quyidagi modullardan iborat bo'lishi tavsiya etiladi:

1. Ta'lim jarayoni qatnashchilari: shaxs, davlat, ta'lim tizimi, fan, ishlab chiqarish va jamiyat orasidagi ta'limga doir munosabatlarni o'rganish;
2. Pedagogik kompetentlik va o'z kasbiy faoliyati mazmini hamda xususiyatlarini tizimli anglash;
3. O'z fani sohasidagi bilimlarini modernizatsiya qilish va boyitish;
4. Zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish;
5. Innovatsion yondashuv va ilg'or tajribalarni joriy etish;



6. Pedagogning ijodiy (kreativ) fikrlashi qobiliyatlarini rivojlantirish;
7. Pedagogning reflektiv (o‘z faoliyatini baholash) ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ushbu xulosalar va tavsiya etilgan takliflarni mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim mkatablarining “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bular asosida “tarbiya” fani o‘qituvchilarining har tomonlama to‘liq rivojlanishiga imkon beradigan mustaqil, ixtiyoriy, ijodiy yondashuv amalaga oshiriladi.

Adabiyotlar:

1. Титенко Д. А. Зарубежный опыт повышения квалификации педагогических кадров // Молодой ученый. 2024. – № 5 (504). – С. 192-194. –URL: <https://moluch.ru/archive/504/110968/> (дата обращения: 04.12.2024).
2. Титенок Д. А. Зарубежный опыт повышения квалификации педагогических кадров // Молодой ученый. 2024. – № 5 (504). – С. 192-194.
3. Гаргай В. Б. Развитие системы повышения квалификации учителей в Великобритании (конецXIX – конецXX вв.) // Дисс. ... д.пед.н. – Новосибирск, 2006. – 180 с.
4. Джемилева Н. Н. Сравнительный анализ повышения квалификации учителей за рубежом // Ярославский педагогический вестник. 2011 – №1 – ТомII (Психолого-педагогические науки). – С. 209-2019.
5. Игнатова И.Б., Сушкова Л.Н. Проектные технологии как метод обучения: историко-педагогический анализ // Теория и практика общественного развития (2011, № 1). – С. 164-167.
6. Воинова О. И. проектные технологии обучения общенаучным дисциплинам в системе высшего технического образования // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Москва, 2008. – 19 с.
7. Полат Е.С. Метод проектов: история и теория вопроса // Школьные технологии. 2016. – № 6. – С.43-47.
8. Томина Е.Ф. педагогические идеи джона дьюи: история и современность // Вестник огу. – №2 (121)/февраль, 2011. – С. 360-366.
9. Латышина Д. И. История педагогики (История образования и педагогической мысли) // Учеб. пособие. – М.: Гардарики, 2009. – С. 587.